

10-May, 2026-yil

AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA HARAKAT XAVFSIZLIGI FAOLIYATINI BAHOLASH MEXANIZMI

M.N.Usmanova

(Toshkent davlat transport universiteti profesori)

Annotatsiya: *Avtomobil transporti eng moslashuvchan va keng tarqalgan transport turidir. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari va aholi punktlaridagi korxonalar umumiy sonining qariyb 80 foizida avtomobil transportidan tashqari boshqa aloqa turlari mavjud emas. Shu munosabat bilan ko‘rsatilayotgan xizmatlar va tashish jarayoni xavfsizligini ta‘minlash muammolarini hal etish dolzarb. Ushbu maqolada avtokorxonalarda harakat xavfsizligi xizmati va uning faoliyatini baholash mexanizmi to‘g‘risida bayon etilgan*

Kalit so‘zlar: *Avtomobil transporti, harakat xavfsizligi, yirik shahar, shahar aholisi, yo‘lovchilarni tashish, avtokorxonalar, yo‘l transport hodisalari.*

Har qanday yirik shaharning jamoat transporti uning qiyofasini belgilaydi. Bu tizim 2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **3 112,8 ming** kishini tashkil etib, yil boshidan **72,0 ming** kishiga yoki **102,4 %** ga ko‘paygan Toshkent shahri aholisi uchun ham kundalik hayotida muhim rol o‘ynaydi. Biroq so‘nggi yillarda avtotransport vositalarining ko‘payishi bilan bir qatorda, yo‘llar sifati, xavfsizlik va ekologik holat bilan bog‘liq muammolar ham ortib bormoqda. Bu esa fuqarolar uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Bularning barchasi jamoat transporti xizmatiga, uning xavfsizligiga bo‘lgan talabni oshiradi. Jamoat transportidan oqilona foydalanish shaxsiy transport vositalaridan foydalanishni kamaytiradi.

Albatta, bu muammolarga mas‘ul tashkilotlar e‘tiborsiz emas. Toshkentda barqaror va xavfsiz transport tizimini shakllantirish ishlari amalga oshirilmogda. Bu jarayon “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi.

«Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahrida jamoat transporti (avtobuslar) harakatini boshqaradigan va tashkil etadigan asosiy tashkilot hisoblanadi. So‘nggi yillarda jamiyat faoliyatida katta o‘zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi.

Asosiy vazifalari va xizmatlari yo‘lovchi tashishni tashkil etish (Toshkent shahri bo‘ylab 160 dan ortiq avtobus yo‘nalishlarini boshqarish),

harakat tarkibini yangilash (eskirgan avtobuslar o‘rniga zamonaviy, ekologik toza elektrobuslar va siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan avtobuslarni va elektrobuslarni olib kelish). Avtobus saroylarini boshqarish (Shaharda 8 ta avtobus saroyi mavjud bo‘lib, ular texnik xizmat ko‘rsatish va haydovchilar ishini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi).

Toshkent ko‘chalarida Xitoyning Yutong va King Long brendlariga tegishli elektrobuslar soni keskin ortdi. Bu ekologiyani yaxshilash va shovqinni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Barcha avtobuslar GPS tizimiga ulangan.

10-May, 2026-yil

Tizimning eng katta o‘zgarishi-brutto-shartnomalarga o‘tilganidir. Bunda tashuvchining daromadi tushum miqdoriga (rejaga) bog‘liq emas, balki bosilgan masofa va xizmat sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu haydovchilar o‘rtasida "poyga"larni to‘xtatish va oraliq intervallariga qat‘iy rioya qilishni ta‘minlashga qaratilgan.

Mamlakatda aholi hamda transportning soni o‘sishi, yo‘llarda qatnovlarni oshishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida yo‘llarda transport tirbandliklarini, yo‘l transport hodisalarini (YTH), shovqin va atrof-muhitni zaharli gazlar bilan ifloslanish darajasini oshishiga sabab bo‘layotgan ekan, shahar yo‘lovchi tashuvchi avtobus saroylarida harakat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatiga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur.

«Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik jamiyati avtobus saroylarida harakat xavfsizligi xodimlari faoliyat olib borishadi. Aksioner jamiyatga qarashli avtobus saroylarining harakat xavfsizligini ta‘minlanganligi holatini baholash uchun “Ekspert baholash” metodidan foydalaniladi. Masalan, 8-Avtobus saroyida harakat xavfsizligini ta‘minlanganligi holatini baholash uchun Ekspertlar guruhini shakllantirish kerak. Mazkur guruhga qaysi mutaxassislarni jalb etishimiz mumkin: Yo‘l harakati xavfsizligi xodimi, yirik korxonada harakat xavfsizligi mutaxassisi, soha bo‘yicha olimlardan, haydovchilarni tayyorlash avtomaktablaridan mutaxassislarni jalb etishi mumkin. Avtosaroy faoliyatini baholash mezonlarini esa ekspertlar guruhi tanlaydi va baholash me‘zonlarini belgilaydi.

Baholash me‘zonini tanlash uchun harakati xavfsizligi xizmati asosiy vazifalaridan kelib chiqib tanlanadi.



1-rasm. Avtosaroy faoliyatini baholash mezonlarini tanlash

Baholash me‘zonini tanlash uchun harakati xavfsizligi xizmati asosiy vazifalaridan kelib chiqib tanlanadi.

Harakat xavfsizligi xizmati xodimlarining barcha vazifalarini uch turga ajratish mumkin:

- uslubiy;
- amaliy;
- tashkiliy.

10-May, 2026-yil

Uslubiy ishlar tavsiyalarni va idoraviy me’eriy xujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha, xususan:

- HX xizmatining ishini tashkil etish va rejalashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- HX xonasini jihozlash va ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- haydovchilarning reys oldi va reysdan keyingi yo‘riqnomalarini berish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- HX xizmati xodimlariga amal yo‘riqnomalari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar;
- halokatlikning oldini olish bo‘yicha avtokorxonaning boshqa bo‘limlari va xizmatlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berish.

Yuqori boshqaruv HX xizmati boshqaruvidagi avtokorxonada HX xizmati xodimlariga uslubiy tavsiyalar beradi, shuningdek ularning faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda amalga oshiradi.

Harakat xavfsizligi xizmati xodimlarining amaliy vazifalariga YTH va YHQ buzilishini hisobga olish hamda tahlil qilish, YTH xizmat tekshiruvini o‘tkazishda, haydovchilarni alkogol qoldig‘ini aniqlashda ishtirok etish, haydovchilarning liniyadagi ishini nazorat qilish kiradi. HX xodimlari halokatning oldini olish bo‘yicha qoidalar va belgilangan me‘yorlarning buzilishi, mos ravishda bu masalalar yuzasidan materiallar tayyorlash ustida doimiy ishlar olib borishga majburlar.

Harakat xavfsizligi xizmati xodimlari bajaradigan tashkiliy vazifalarga YTH oldini olish bilan bog‘liq seminarlar, tanlovlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish, harakat xavfsizligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar natijasini korxonada amaliyotiga tadbir etish kiradi. Asosiy yo‘nalishlaridan yana biri HX xonasi faoliyatini tashkil etishdan iborat.

HX xizmati tomonidan avtomobillarda tashuvchining yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish bo‘yicha faoliyatning yillik rejasi ishlab chiqiladi.

R_i -ATKlarda harakat xavfsizligi sifatini baholash tizimining natijaviy ko‘rsatkichi deb belgilandi, bu ko‘rsatkichning o‘zgarish diapozoni bo‘yicha baholash quyidagicha:

- $R_i > 9,0$ bo‘lsa - yaxshi;
- $7,0 < R_i < 9,0$ bo‘lsa - qoniqarli;
- $R_i < 7,0$ bo‘lsa - qoniqarsiz.

Integral ko‘rsatkichi umumiy ballar ko‘rsatkichiga mos ravishda bo‘linadigan kompleks mezonlar tizimini o‘z ichiga oladi, ular quyidagilardan iborat:

- harakat xavfsizligi bo‘yicha yuritiladigan jurnalning mavjudligi va yuritilishining to‘g‘riligi;

- me‘yoriy xujjatlarning mavjudligi;
- haydovchilar bilan shug‘ullanish uchun harakat xavfsizligi xonasining jihozlanganligi;
- tibbiy xodimlar ishini tashkil etish;
- harakat xavfsizligi muhandisi ishini tashkil etilishi;
- ATK xizmat va bo‘linmalarining harakat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni.

10-May, 2026-yil

$$\sum R_i = \frac{\sum R_i q_i}{q_i} \quad (1)$$

bu erda: R_i – i - umumiy mezonlar; q_i – i -chi mezonning og‘irlik koeffitsienti.

Kompleks ko‘rsatkichini hisoblash tartibi har bir mezon bo‘yicha alohida hisoblanadi:

$$R = \sum X_i \cdot k_i \quad (2)$$

X_i – xususiy mezon; k_i – og‘irlik koeffitsienti.

Xususiy mezon ko‘rsatkichi 0,5 va 10gacha ko‘rsatkich bilan belgilanadi. Agar mezon bo‘yicha talab qilinayotgan sharoit to‘liq bajarilsa, $X=10$; agar kamchiliklar bo‘lib, mezonlar sifati pastroq bajarilsa, $X=5$; $X=0$ bo‘lsa, bu holatda mezon talabi bajarilmaydi. Og‘irlik koeffitsientini harakat xavfsizligi ko‘rsatkichiga u yoki bu darajada ta‘sir ko‘rsatishiga qarab tanlanadi. Ahamiyati katta bo‘lgan mezonga katta koeffitsient taqdim etiladi.

Shunday qilib, olingan natijalarni solishtirib, baholash shkalasiga qo‘yib chiqsak, ikki korxonada bo‘yicha harakat xavfsizligini ta‘minlash natijaviy integral ko‘rsatkichlari qoniqarli ekanligini ko‘rish mumkin.

Integral ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun boshlang‘ich ma‘lumotlar ATKlarning harakat xavfsizligi faoliyati ko‘rsatkichlarini tahlil natijalari asosida olinadi.

Kompleks va xususiy mezonlar ko‘rsatkichlarini tadqiq qilinayotgan avtomobil transporti korxonalarida uchun alohida aniqlab chiqiladi. Bu uslub asosida ATK lari harakat xavfsizligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, ishlab chiqilayotgan tadbirlar samaradorligini va uning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 aprel 2022 yil 190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

2.“Avtomobilida tashuvchining yo‘l harakati xavfsizligi xizmati to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligidagi 2013yil 26 dekabrda 2545-son bilan ro‘yxatga olingan)

3.“Avtomobilida tashuvchi tomonidan haydovchilarga yo‘l harakati xavfsizligi masalalari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligidagi 2014yil 13 mayda 2582-son bilan ro‘yhatga olingan)

4.“Avtomobil transporti haydovchilarining ish vaqti va dam olish vaqti to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligidagi 2013yil 9 sentyabrda 2506-son bilan ro‘yhatga olingan)

5.“Avtomobilida tashuvchining foydalanish xizmati va texnika xizmati to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligidagi 2014yil 9-dekabrda 2630-son bilan ro‘yhatga olingan)

6.M.N.Usmanova. Transport korxonalarida harakat xavfsizligi xizmati faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash. TAYI xabarnomasi. 2017y. 3-4soni.

7.Maxira Usmanova, Sayyora Rajapova and Yashnar Juraev. Innovative ways to train drivers and improve their skills. Cite as: AIP Conference Proceedings 2432, 030100 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0090825> Published Online: 16 June 2022